Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные вопросы развития аудита финансовых инструментов на предприятиях. В частности, анализируются механизмы организации учета финансовых инструментов и обеспечения их прозрачности в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности (МСФО). Подчеркивается важность правильного учета и раскрытия информации о ценных бумагах — акциях, облигациях, депозитных сертификатах, производных финансовых инструментах и других видах инвестиционных активов — в соответствии с международными требованиями. Кроме того, исследуются вопросы организации аудиторских проверок на основе международных стандартов, оценки рисков по финансовым инструментам, а также эффективного проведения операционного и комплаенс-аудита. Путем сопоставления национальной аудиторской практики с зарубежными критериями определяются направления совершенствования системы. В итоге сделаны научные выводы, направленные на повышение достоверности финансовой отчетности на предприятиях, укрепление инвестиционного климата и ускорение интеграции в мировые финансовые рынки.

Ключевые слова: Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), зарубежные критерии, ценные бумаги, национальные стандарты аудиторской деятельности, инвестиции, депозитный сертификат, корпоративные облигации, эмиссионные ценные бумаги, варрант, опцион, производные финансовые инструменты, операционный аудит, аудит на соответствие.



KIRISH

Jahonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish yirik hajmda investitsiyalarni talab qilishi, mazkur jarayonda qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishi jamg'armalarni investitsiyalarga transformatsiya qiladi va iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiya kiritishga imkoniyat yaratadi. Qimmatli qog'ozlarni birlamchi va qayta sotish bo'yicha barcha operatsiyalar qimmatli qog'ozlar savdo tizimlarida fond birjasi, elektron savdo va uyushmagan savdo tizimlari orqali amalga oshiriladi.

"Jahondagi eng yirik 10 ta birja jahon fond bozori kapitallashuvining qariyb 77 foizini yoki 65,6 trillion AQSh dollari tashkil qiladi. Ular bo'yicha birja savdolarining kunlik hajmi 5,0 trillion AQSh dollardan oshadi, bu jahon aylanasing 40,0 foizini tashkil etadi, 22,0 foizi faqat NYSE (New York Stock Exchange) va NASDAQ (National Association of Securities Dealers Automated Quotations) birjalariga to'g'ri keladi".

Dunyo amaliyotida moliya bozorini boshqarish jarayonlarida moliyalashtirish darajasining keskin tushib ketganligi, ularning oldini olish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va korporativ boshqaruv jarayonida xalqaro talablariga mos ravishda buxgalteriya hisobi hamda auditni turli metodologik yondashuvlar asosida yuritish zarurligi kuzatilmoqda.

Jahon mamlakatlarida iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida bevosita qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining raqobatbardoshligini oshirish muammolari vujudga kelmoqda. Moliyaviy instrumentlarni tan olish, uning hisobini tashkil etish va auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishda, moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning buzib ko'rsatilishi hamda firibgarliklarning oldini olish muhim ilmiy tadqiqot mavzularidan biri bo'lib qolmoqda.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, jahonning yirik davlatlarida qimmatli qog'ozlarning kuzatuvsiz chiqarilishi natijasida ko'plab nufuzli xalqaro tahlil markazlari va ekspertlar chalg'itilishi kuzatilmoqda. Ushbu sharoitda qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish, ular tomonidan chiqarilayotgan moliyaviy instrumentlarning ta'minlanganlik darajasini oshirish, moliyaviy instrumentlar hisobini yanada isloh qilish, uni hozirgi bozor iqtisodiyotiga moslashtirish masalalari xalqaro va milliy tadqiqot markazlari tomonidan ilmiy izlanishlar orqali o'rganilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda moliyaviy instrumentlardan keng foydalanish maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlarning qimmatli qog'ozlarini dunyodagi mashhur fond birjalari talablariga muvofiq joylashtirish natijasida biznesni rivojlantirish va uni samarali boshqarish muammosini hal etish hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llashga alohida e'tibor qaratish belgilangan.

"Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek hisob va audit sohalarida mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida" alohida hukumat rahbari tomonidan qarorlar bilan ham belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida "moliya bozoriga xorijiy kapital oqimlarini asosan o'rta va uzoq muddatga jalb qilish; davlat qimmatli qog'ozlarini norezidentlar tomonidan xarid qilishga ruxsat berish; korporativ qimmatli qog'ozlar bozorida likvidlikni oshirish" kabi vazifalarning belgilanishi moliyaviy instrumentlar hisobi va auditing nazariy hamda uslubiy jihatlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni, 2019–25-dekabrda 598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2015–3-iyundagi 387-son "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2014–6-maydagi 370-son "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2018–1-avgustdagi PF-5495-son "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2015–24-apreldagi PF-4720-son "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2012–19-martdagi PQ-1727-son "Fond bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2020–24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2007–4-apreldagi PQ-615-son "Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi Qarori hamda moliyaviy instrumentlar hisobi va auditi faoliyatiga tegishli bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ushbu sohani rivojlantirishda asosiy huquqiy baza bo'lib xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekistonda moliyaviy instrumentlarni buxgalteriya hisobi va auditi masalasi dolzarb mavzu bo'lib, iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan ushbu masala bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar amalga oshirilgan bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida moliyaviy instrumentlarni



hisobga olish va uning auditini tashkil etish masalalari hamda ayrim yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilganini ko'rish mumkin.

Jumladan, Isroilov B.I. tomonidan (1999) aksiyadorlik jamiyatlarida hisob siyosatining konseptual asoslari, ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan debitorlik qarzlari va ularni kamaytirish yo'llari, aksiyalarning fond birjalari va depozitariylar hisobining o'ziga xos jihatlari, shuningdek xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, omilli tahlil yordamida mavjud ichki imkoniyatlarni aniqlash masalalari yoritib berilgan. Muallifning keyingi ilmiy ishlarida (2006) esa aksiyadorlik jamiyatlarida mol yetkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarni baholash, ularni schyotlar rejasida aks ettirish, majburiyatlar ustidan nazoratni amalga oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, obligatsiyalar hisobi, majburiyatlarni baholash va ularning tahliliga oid masalalar ko'rib chiqilgan.

Investitsiyaning ikkinchi turi bo'yicha turli fikrlar mavjud bo'lib, ularda xo'jalik subyektlarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyati turlicha talqin etilgan. Masalan, Piter Rouz [3] banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatini o'rganib, ularni ikki sinfga bo'ladi: 1) pul bozori instrumentlari; 2) kapital bozori instrumentlari. U investitsiya faoliyatining asosiy yo'nalishiga veksellar va obligatsiyalarni jalb etishni taklif qilgan.

G.N. Beloglazova [4] esa to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va portfelli investitsiyalarni o'rganib chiqib, qimmatli qog'ozlar orqali to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish va ularni investitsiya portfelini shakllantirishni tavsiya etgan. O.I. Lavrushin [5] tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatini takomillashtirish bo'yicha investitsiya banklarini tashkil etishda ikki yo'lni taklif qilgan:

- a) to'g'ridan-to'g'ri qimmatli qog'ozlarni joylashtirish va sotish;
- b) uzoq muddatli kreditlash orqali investitsiya faoliyatini yo'lga qo'yish.

E.I. Nosirov [6] tomonidan xo'jalik subyektlarining investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar tadqiq etilib, ular orasida eng muhimlari sifatida investorlar huquq va manfaatlarining buzilishi, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi rolini oshirish tamoyillarining yetarlicha shakllanmaganligi qayd etilgan. F.A. Yuldashev [7] tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozori operatsiyalarini tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlarini chuqur o'rganib chiqqan.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, olimlar ushbu muammoni turlicha nuqtayi nazardan o'rgangan va o'z qarashlarini bildirganlar. Biroq ko'pchilik ilmiy qarashlarning iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida moliyaviy instrumentlarni hisobga olish va auditini tashkil etish masalalariga to'liq mos kelmasligi ushbu mavzu bo'yicha izlanishlarni yanada chuqurlashtirish zarurligini taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida bir qator metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Jumladan, nazariy tushunchalarni shakllantirishda ilmiy abstraktsiyalash usulidan foydalanildi. Bu usul orqali moliyaviy instrumentlar hisobi va auditiga oid umumiy tushunchalar aniqlanib, ularning mohiyati va mazmuni ilmiy jihatdan yoritildi.

Shuningdek, dalillarni umumlashtirish va ular asosida umumiy xulosalarga kelishda induksiya usuli, mavjud nazariy qoidalarni aniq misollarda sinab ko'rishda esa deduksiya usuli qo'llanildi. Ushbu ikki usulning uyg'unlashuvi ilmiy natijalarni mantiqiy asoslashga imkon berdi.

Tahlil jarayonida moliyaviy instrumentlarning o'ziga xos jihatlari, ularning buxgalteriya hisobi hamda auditorlik tekshiruvlaridagi amaliy qo'llanilishi ko'rib chiqilib, ularni qismlarga ajratib o'rganishga tahlil usuli, ajratilgan elementlarni yaxlit tizimga keltirishda esa sintez usulidan foydalanildi.

Bundan tashqari, turli xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi moliyaviy instrumentlarning qo'llanishini o'zaro taqqoslash maqsadida iqtisodiy-matematik qiyoslash usuli qo'llanildi. Ushbu yondashuv ularning o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash, samaradorlik darajasini baholash imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqotda ma'lumotlarni tizimlashtirish va ularning turlari bo'yicha taqsimlanishini aniqlash uchun statistik guruhlash usuli keng qo'llanildi. Bu esa moliyaviy instrumentlarning amaliyotdagi qo'llanish ko'lamini ilmiy asosda baholashga yordam berdi.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodologik yondashuvlar maqolada keltirilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalarning puxta, asosli hamda ishonchli bo'lishini ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yurtimizda qimmatli qog'ozlar bozori muhim va dolzarbli sababli ushbu masalaga keyingi yillarda alohida e'tibor berilmoqda. Qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larini jamlash va uni investitsiya jarayonlariga yo'naltirishning muhim vositasidir. Bu boradagi islohotlarning dastlabki bosqichi sifatida joriy yil boshida Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tuzildi. Davlat obligatsiyalari fond bozoriga qayta chiqarildi. Ushbu masalani rivojlantirish to'g'risida O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan shunday deyilgan:



“Lekin qimmatli qog‘ozlar chiqarib, ularni fond bozorida sotish mexanizmidan samarali foydalanilmayapti. Fond bozorida aksiyalarning jami qiymati 25 trillion so‘m bo‘lib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 6 foizga ham yetmaydi. Bu ko‘rsatkich Singapurda 188 foiz, Malayziyada 112 foiz, Rossiyada 34 foizni tashkil etadi.

Mamlakatimizda joriy yilda chiqarilgan davlat obligatsiyalari valyuta birjasi orqali faqatgina tijorat banklariga sotilgan. Fond bozori professional ishtirokchilari soni yuztagayam bormaydi. Shu bois 2020–2025 yillarda fond bozorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish rejalashtirilgan. Erkin muomaladagi jami qimmatli qog‘ozlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatini 2025-yil oxirigacha kamida 10–15 foizga yetkazish mo‘ljallangan”.

Ushbu sohani tahlil qiladigan bo‘lsak, bugungi kunda bu soha, ya‘ni qimmatli qog‘ozlar bozori 100 ga yaqin normativ hujjatlar bilan tartibga solinib, ko‘plab cheklovlar o‘rnatilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yurtimizda qimmatli qog‘ozlar bozori muhim va dolzarbligi sababli ushbu masalaga keyingi yillarda alohida e‘tibor berilmoqda. Qimmatli qog‘ozlar bozori iqtisodiyotdagi bo‘sh pul mablag‘larini jamlash va uni investitsiya jarayonlariga yo‘naltirishning muhim vositasidir.


Bu boradagi islohotlarning dastlabki bosqichi sifatida joriy yil boshida Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tuzildi. Davlat obligatsiyalari fond bozoriga qayta chiqarildi. Ushbu qilingan ishlar fond bozorini rivojlantirish uchun yetarli emas deb o‘ylaymiz.

Mamlakatimizda joriy yilda chiqarilgan davlat obligatsiyalari valyuta birjasi orqali faqatgina tijorat banklariga sotilgan. Fond bozori professional ishtirokchilari soni yuztagayam bormaydi. Emitentlar soniga bog‘liqligini va uning rivojlanishini tahlil qilish lozim.

1-jadval. O‘zbekiston Respublikasida fond bozori hajmining tahlili


№	Yillar	Bitimlar soni	Bitimlar hajmi, mlrd so‘m	Inflyatsiya %	Emitentlar soni
1	2018	13 750	687,30	14,3	117
2	2019	32 816	438,82	15,2	112
3	2020	36 062	578,15	11,1	103
4	2021	71 489	1 260,51	10,0	108
5	2022	80 723	4 816,21	12,3	114
Jami 5 yillik	X	234 840	1 704,27	X	X

Ushbu 1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, O‘zbekiston Respublikasi fond bozori keyingi yillarda juda tez rivojlanmoqda. Ayniqsa, fond bozori 2021 va 2022-yillarda jadal rivojlanib, jumladan, 2018-yili 687,3 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda nisbatan kamaygan, 2020-yilda esa 139,33 mlrd so‘mga o‘sgan. Bundan tashqari, 2021-yili 2022-yilga nisbatan 3,82 baravarga yoki 3 555,7 mlrd so‘mga oshganligini ko‘rishimiz mumkin.



1-rasm. O‘zbekistonda fond bozori hajmining tahlil grafiki

Emitentlar soni o‘zgargani bilan fond bozorining hajmi unga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘zgarganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu qimmatli qog‘ozlar bozorida asosiy masala daromadlilik darajasini hisoblash va buning uchun zarur axborot bilan ta‘minlash masalasi hisoblanadi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyati va rivojlanishi dinamikasining tahlil grafiği

Demak, asosiy ushbu sohani tahlil qiladigan bo'lsak, bugungi kunda bu soha, ya'ni qimmatli qog'ozlar bozori 100 ga yaqin normativ hujjatlar bilan tartibga solinib, ko'plab cheklovlar o'rnatilganligini ko'rishimiz mumkin.

Oxirgi yillarda O'zbekiston fond bozori barqaror o'sish ko'rsatkichlarini namoyon qilib, qimmatli qog'ozlarga mablag'larni samarali investitsiyalashning katta imkoniyatlarini ochib bermoqda va mamlakat moliya tizimining tobora ahamiyatli qismiga aylanib bormoqda.

Respublikada qimmatli qog'ozlar bilan birja operatsiyalari korxonalar innovatsion rivojlanishi uchun mablag' jamlashning tobora keng tarqalayotgan shakliga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, aksiyadorlik jamiyati soni va ustav kapitali o'zgarishi dinamikasini taqqoslash mumkin.

Ushbu 2-rasm grafik chizmasidan ko'rinib turibdiki, hozirda aksiyadorlik jamiyatlariga korporativ boshqaruvni joriy etish va unga bo'lgan talablarning o'zgarishi natijasida ularning soni kamayib bormoqda. Shu jumladan, aksiyadorlik jamiyatlari 2022-yilda umumiy bozor kapitallashuvi 94,38 trln so'mni tashkil etgan. Lekin ularning ustav fondi borgan sari oshib boravotganini ko'rishimiz mumkin.

Masalan: 2021-yilda 56,20 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, ustav kapitali esa 2020-yilda 54,79 trln so'mni tashkil etganligini kuzatish mumkin. Ularning o'sib borishi yaqqol ko'rinmogda.

2-jadval. Viloyatlarning 2023-yilga fond bozori hajmi tahlili

Hududlar	Emitentlar soni	Bitimlar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Bitimlar hajmi, so'm
Andijon viloyati	4	8 601	41 814 582	16 769 840 129,57
Buxoro viloyati	9	648	9 689 323	16 051 218 885,17
Toshkent shahri	47	34 984	36 066 662 551	2 658 061 671 456,47
Jizzax viloyati	1	301	34 658	126 710 383,05
Qashqadaryo viloyati	8	169	512 833	12 513 676 356,32
Navoiy viloyati	3	6 822	4 359 403	14 602 655 278,41
Namangan viloyati	4	1 245	135 944	4 037 097 570,22
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5	83	3 194 490	39 293 691 648,92
Samarqand viloyati	2	305	1 357 135	14 167 059 932,03
Sirdaryo viloyati	2	4	150 663	326 102 481,09
Toshkent viloyati	16	18 479	11 010 930	1 962 863 604 773,77
Farg'ona viloyati	10	9 062	10 429 576	60 999 925 563,36
Xorazm viloyati	3	20	5 408 094	16 394 164 342,02
Jami	114	80 723	36 154 760 182	4 816 207 418 800,40



«Toshkent» RFB rasmiy birja listingiga 2023-yilda 21-aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari kiritilgan bo'lib, ular jumlasiga tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, qurilish materiallari ishlab chiqarish, agro-sanoat kompleksi, energetika, metallurgiya va iqtisodiyotning boshqa sanoat tarmoqlariga mansub korxonalar kiradi. 2023-yil 31-may holatiga 106 ta emitentlarning 129,93 mlrd so'mlik aksiyalari umumiy bozor kapitallashuviga erishgan.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirish, ayniqsa qimmatli qog'ozlar hisobini tashkiliy masalalarni hal qilish va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining turli xalqaro tashkilotlar bilan faol aloqalar o'rnatishi, jahon iqtisodiy hamjamiyatiga qo'shilishi jarayonida iqtisodiy ko'rsatkichlarning xorijiy mezonlarga taqqoslanishi, auditning uslubiy tamoyillari jahon amaliyotida qabul qilingan standartlar talablariga javob berishini ta'minlashni talab etadi.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga investitsiyalar muhim hissa qo'shib, ularni jalb etishda turli usullardan foydalanish mumkin. Kapital qo'yimlar obyektiga faqat asosiy vositalar kiritilsa, investitsiyaga aylanma mablag'lar va qimmatli qog'ozlar kiradi. Investitsiya ikki turga bo'linadi: birinchisi — mablag'larni to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalash, ya'ni uni korxona faoliyatiga kapital sifatida kiritish; ikkinchisi — mablag'ni korxonalar aksiyalarini sotib olishga sarflash bo'lib, portfelli investitsiya deyiladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etish dolzarb masala hisoblanadi. Shunday yo'llardan biri — qimmatli qog'ozlar chiqarish va ularni sotish orqali pul mablag'larini iqtisodiyotga jalb qilishdir. Aktivlarni boshqarishda asosiy vazifa risklarni boshqarish va nazorat qilish usullari yordamida qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining strategik maqsadlarini ta'minlashdan iborat. Bunday usullar tashqi muhit hamda aktivlar tuzilishiga qarab tanlanadi. Mazkur vazifani hal etish uchun qog'ozlar bozori ishtirokchilari mikro va makro sohalaridagi o'zgarishlarga, shuningdek mamlakat va jahon moliya tizimidagi makroiqtisodiy vaziyat o'zgarishlariga tezkor moslasha olishi, ayrim hollarda esa noan'anaviy qarorlar qabul qilishi talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy instrumentlar hisobi va auditini takomillashtirish uchun yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Bugungi kunda qimmatli qog'ozlar hisobi va auditning huquqiy asosini takomillashtirish tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Bunga xalqaro bozorlarda faoliyat yuritayotgan kompaniya, korxona va banklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shakllanishi va qimmatli qog'ozlar bozorining yanada rivojlanishi sabab bo'lmoqda. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq faoliyatni hisobga olish va audit tekshiruvini xalqaro standartlar talablariga muvofiq o'tkazish iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, auditorlik faoliyatining milliy standartlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish masalalari hali to'liq o'rganilmagan. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qimmatli qog'ozlar hisobi va auditning xalqaro standartlarini rivojlantirish salmoqli ahamiyat kasb etadi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasida ushbu yo'nalishni yanada takomillashtirish zarur. Jahon iqtisodiy munosabatlarning kengayishi, xalqaro maydonda iqtisodiy aloqalarning kuchayishi, ko'plab davlatlarda faoliyat yurituvchi multinatsional kompaniyalar paydo bo'lishi iqtisodiy va moliyaviy axborotlarni yagona tizimga solish hamda foydalanuvchilarga qulay tarzda yetkazib berishni taqozo etadi.

2. O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilikka ko'ra, xo'jalik subyektlari tomonidan quyidagi qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarishga ruxsat etilgan.

Buxgalteriya hisobining 21-sonli "Buxgalteriya hisobi schyotlar rejas"i milliy standartiga ko'ra, qimmatli qog'ozlarni quyidagi schyotlarda hisobga olish belgilangan:

- 0610 – "Qimmatli qog'ozlar";
- 0620 – "Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar";
- 0630 – "Qarma xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar";
- 0640 – "Xorijiy kapital qatnashgan korxonalarga investitsiyalar";
- 0690 – "Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar" [8].

Biroq O'zbekiston Respublikasi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuniga [9] muvofiq, depozit sertifikat, korporativ obligatsiyalar, emissiyaviy qimmatli qog'ozlar kabi turlar ham nazarda tutilgan. Demak, ushbu qimmatli qog'ozlarni ham hisobga olish zarur. Shu bois, bizning fikrimizcha, ularni alohida hisobga olish uchun 0610 schyotda qo'shimcha quyidagi subschyotlarni ochish maqsadga muvofiqdir:

- 0611 – "Depozit sertifikat";
- 0612 – "Korporativ obligatsiyalar";
- 0613 – "Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar".

Mazkur subschyotlarda ushbu qimmatli qog'ozlarni alohida yuritish, ularning turlari va emitentlarning nomlari bo'yicha analitik hisob yuritish zarur.



Ushbu taklif qilinayotgan schyotlarning quyidagicha boshqa hisobvaraqlar bilan bog'liqligini ko'rish mumkin.

Qimmatli qog'ozlar auditini amalga oshirishda eng avvalo ichki audit tomonidan batafsil auditorlik nazorati amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtga kelib ko'p hollarda ichki auditorlarning funksiyalari, hatto o'z kompaniyasi tarkibiy bo'linmalari buxgalteriya hisobotlarini tekshirish doirasidan ham chiqib ketadi. Ichki auditorlar korxonaning iqtisodiy siyosati va boshqaruv masalalarida tobora ko'proq ishtirok etmoqda.

Ichki auditorlar yuqori malakali mutaxassislar bo'lib, o'z maqomiga ko'ra katta vakolatlarga ega. Ularning majburiyatlari doirasiga ko'proq quyidagilar kiradi:

operatsion audit — boshqaruv masalalari bo'yicha korxonaning turli tarkibiy bo'linmalariga maslahat berish, shu jumladan qimmatli qog'ozlar sotib olish va uning ishonchliligini aniqlashda ichki audit xulosasiga tayangan holda qaror qabul qilish (masalan, marketing ishlarini baholash, korxona qimmatli qog'ozlarining ishonchliligi va uning to'lovga qobiliyatligiga e'tibor qaratish, tarkibiy tuzilmasini baholash va hokazo);

muvofiglik auditi — ushbu korxona bo'linmalari faoliyati, uning ma'muriyati va zarur bo'lganda yuqori organlar tomonidan belgilangan yoki qonun hujjatlarida ko'rsatilgan qoidalarga muvofiqligini tekshirishdan iborat. Masalan, tuzilgan shartnomalarni yuridik talablar nuqtayi nazaridan tekshirish va baholash, qimmatli qog'ozlar bo'yicha risklarni kamaytirish va hokazo.

Shunday qilib, qimmatli qog'ozlar hisobini va auditini to'g'ri tashkil etish ularga tegishli dividendlarni o'z vaqtida olish imkonini beradi hamda ular bo'yicha hisobni aniq va to'g'ri yuritish sharoitini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Rasmiy statistika – Tashqi savdo. URL: <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>
3. Роуз, Питер. Банковский менеджмент. Москва: INFRA-M, 1995. – 294 s.
4. Белоглазова, Г.Н., Кроливецкая, Л.П. Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка. Москва: Vysshee obrazovanie, 2008. – 422 s.
5. Лаврушин, О.И. Основы банковского менеджмента. Москва: Финансы и статистика, 1998. – 612 s.
6. Nosirov, E. Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari rolini oshirish masalalari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2006. – B. 24.
7. Yuldashev, F.M. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini faollashtirish masalasi. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2006. – B. 23.
8. Alimov, I.I. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari. Toshkent, 2006. – 216 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy buxgalteriya hisobi standarti. NSBU №21. Toshkent: «NORMA», 2022. – 42 s.
10. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 29–30-son, 278-modda.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>